

O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATIDA VATAN TASVIRI

Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna

Farg‘ona davlat universiteti dosenti

Tojialiyeva dilnoza Rasuljon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy ildizlari yoritilgan. Shu bilan bir qatorda vatanparvarlik, vatanni sevish va vatanga sadoqat tushunchalarining axloqiy asoslari, farqli jihatlari va dialektik aloqadorligi tadqiq etilgan va ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan. Bunda mintaqamizning uzoq tarixdan hozirga qadar insonni ma’naviy fazilatlarini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shib kelayotgan asosiy manbalar, buyuk allomalarimiz asarlari orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘z: ma’rifiy-tarbiyaviy, johillik, yuksak axloqiylik, ma’rifatparvar, vatanparvarlik, vatanni sevish.

Shoir va adib, fidoyi ma’rifatparvar Abdulla Avloniy axloqiy-ta’limiy, ma’rifiy-tarbiyaviy asarlari bilan o‘zidan keyingi avlodni ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelyapti. Ma’rifatparvar adib tarbiya masalasini hayotda birinchi o‘ringa qo‘yadi. Barcha ishlarning muvaffaqiyatini tarbiyalanganlikda ko‘radi; bilimsizlik, johillik, jinoyatlarning sababini tarbiyasizlik bilan bog‘laydi. Uning e’tiroficha, «har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir».

Adib jamiyat va davlat taraqqiyoti, insonlarning kelajagi uchun tarbiya muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlab, shunday deydi: «... tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir». Adib «Vatanni suymak» asarida Vatan tushunchasining ma’nosi, inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtining qadr-qimmatini nimalardan iborat ekanligini sodda, ta’sirchan, teran uslubda tushuntiradi. Mana bu satrlarga e’tibor beraylik: «Biz turkistonlilar o‘z vatanimizni jonimizdan ortuq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz: «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l», – demishlar». Adib Vatan tuyg'usini eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri sifatida ta'riflaydi. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'amhasratini baham ko'rish farzandning burchi. Vatanni tanlamaydilar. Vatanni u qanday bo'lmasin, sevish kerak.

Avloniy Vatan haqidagi o'z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslaydi. Masalan, ayrim kishilar o'z uy-joylarini sotib Makkaga borishadi. Ammo shularning aksariyati yana o'z vatanlariga qaytib keladilar. Adib Vatanga intilishning sababini bunday izohlaydi: «Buning sababi, ya'ni bularni tortub kelturgan quvvat o'z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidur...» – deydi va lavha so'ngida Payg'ambarimizning: «Hubbul-vatani minal-imoni» – «Vatanni suymak imondandur», – degan so'zlarini keltiradi. Abdulla Avloniy Vatan haqidagi fikrlarini o'zining 1916-yilda chop etilgan «Maktab gulistoni» kitobidagi she'rlarida ham davom ettiradi. Ayniqsa, ushbu kitobdagi «Vatan» she'ri diqqatga sazovor. Ushbu asarni Vatan sha'niga bitilgan madhiya deb atash mumkin. U quyidagi otashin satrlar bilan boshlanadi:

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas – aqli pastdur...
Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!

Ushbu she'rda ona-yurtning ko'rkam, ulug'vor manzarasi chiziladi. Uning tuyg'usi yuraklarga g'ulg'ula soladi, kishini dardlardan xalos etadi. Uni sevmaslik, e'zozlamaslik, qadriga yetmaslik kishini tubanlashtiradi.

Shoir fikricha, farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketadigan farzandlar ham topiladi. Vatanning ham go'zal tabiatini, ko'rkam bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish-g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas.

Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari noz-u ne'mat parchalari.
Sendan tug'ub, katta bo'lub, qaytib borub,
Yana senga kiradurmiz bag'ring yorub.
Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!
Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,

Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla!¹

Xullas, axloqiy-ta'limiy asarlar, darsliklar yozib, milliy uyg'onish adabiyotining maydonga kelishi va rivojiga katta hissa qo'shgan Abdulla Avloniy ijodi bugun ham ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek bolalar she'riyati namoyandalaridan Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Qudrat Hikmat, Tursunboy Adashboyev va Anvar Obidjonlar ham Ona-vatan, kindik qoni to'kilgan yurt ta'rif-u tavsifiga bag'ishlab bir qator she'rlar yaratganlar.

Inson hayotda ishonch bilan yashashi kerak. Ayniqsa, odamlarga, xalqqa ishonch har bir bolada bo'lishi lozim. Insonni inson qiladigan ham, uni bor qiladigan ham, yer bilan yakson qiladigan ham-Vatan. Xalqni sevish, xalqqa ergashish azaldan bor bo'lgan. Shoir Cho'lpon ham xalqning naqadar buyuk kuch-qudratga ega ekanligini, bolalar yurish-turishda, o'qishda, odob axloqda xalqqa ergashsa, xalqning og'irini yengil qiladigan bo'lsa, o'sib, ulg'ayib har qanday ishning qulog'ini ushlaydigan bo'lsa, aslo kam bo'lmasligini "Xalq" asarida juda xalqona ohangda, hikmatlar shaklida aytadi:

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir. ...
Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!²

O'zbek bolalar she'riyatida O'zbekiston haqida ko'plab asarlar bor. A.Oripov ularni takrorlamasdan o'ziga xos original asar yozgan. She'r qahramonlari o'n ikki viloyatdan chiqqan a'lochi, jamoatchi o'quvchi bolalar. Ular o'z joylarining tarixini yaxshi bilishadi. Poyezdda o'zlariga hamroh bo'lgan boboning savollariga lo'nda-lo'nda qilib javob berishadi. O'zbekistondagi har bir viloyatning o'ziga xos boyligi, shaharlari, bag'rikeng odamlari kitobxon ko'z o'ngida bir-bir gavdalanadi. O'zaro suhbat asosiga qurilgan bu she'rda boboning yakuniy nutqi juda salmoqli. To'rt misra she'r bilan tobora gullab-yashnab borayotgan, o'ziga mustaqil bo'lib, o'z taqdirini o'zi bunyod etayotgan diyorimizning husni jamoli, salobati va qudrati bir butunligicha ifoda etilgan:

Siz atagan har bir joy
Bitta bo'ston bo'ladi,
Hammasini qo'shsangiz,
O'zbekiston bo'ladi.

¹A.Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-2-jildlar.-T.: "Manaviyat", 2006.

²Adabiyot 7-sinf. "Sharq" Nashriyot-Matbaaaksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2017

Q.Hikmatning shogirdi T.Adashboyev ijodida ham Ona-vatan madhiga bag‘ishlovlar, uning go‘zalligini tarannum etuvchi satrlar bisyordir. Muallif Ona-Vatanning go‘zalliklarini shunday mehr-muhabbat bilan tasvirlaydiki, she’rni o‘qigan kitobxonda bu go‘zallikni asrab-avaylash, o‘z tug‘ilgan go‘shasiga bo‘lgan mehr-muhabbat kabi nozik his-tuyg‘ularning shakllanishi muqarrardir. Bunday asarlarni yaratishdan asosiy maqsad esa o‘‘sib kelayotgan yosh avlodni Ona-vatanga, ota-bobolar ruhiga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida munosib avlod, farzand bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirishdir. T. Adashboyevning “Qiyosi yo‘q” she’ri insonning tug‘ilgan yurtiga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, undagi har qarich yerning muqaddas ekanligini o‘zida to‘liq mujassamlashtirgan:

Sen tug‘ilgan,
Qutlug‘ xona.
Aziz diyor,
Pok ostona.
So‘lim o‘lka
Kesh, Farg‘ona,
Qadim Urganch,
Shu durdona.
Ko‘rkam Toshkent,
Asal-qandim.
O‘sh, Buxoro,
Samarqandim.
Qiyosi yo‘q,
Bu yagona.
Sen-u menga
Vatan – Ona.
Shunday go‘zal
Ulug‘ yurtkim,
Tuproq‘ini
Ko‘zga surtgin.

Bu satrlar vatanning ona kabi yakka-yu yagonaligini, bu tuproqning “qutlug‘ xona”, “aziz diyor”, “pok ostona” kabi sifatlashlari esa yosh kitobxon qalbida ona-vatan muqaddasligi tushunchasini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Vatan tuprog‘ini ko‘zga surtish (tavof qilish) shunchaki gap emas, o‘zini ushbu tuproq farzandi deb hisoblaydigan har bir kishining dastlabki insoniy burchi ekanligini ta’kidlaydi. Yosh kitobxonda yurtimizning dunyoga dong‘i taralgan Urganch, Buxoro, Samarqand, Kesh, Toshkent singari shaharlari, undagi jahon tarixi va madaniyatining rivojlanishiga asos solgan allomalar bilan faxrlanish his-tuyg‘ularini uyg‘otadi.

O‘zbek bolalar she‘riyatining yetakchi namoyandalaridan Anvar Obidjon ijodida ham ona-Vatan tarifiga, uning betakror go‘zalliklari tasviriga bag‘ishlangan she‘rlarni uchratamiz. “Ona Yer” she‘rining xayolparast qahramoni raketasiga o‘tirib olib, barcha sayyoralarni kezadi:

Raketamda g‘izillab,
Parvoz qildim men Oyga.
Insonlar yuz ming yillab
Orzu qilishgan joyga.
Keyin o‘tdim Saturn,
Mars hamda Yupiterga.
O‘xshatmadim hech birin
Baxt bergan ona Yerga!

– deydi. Teranroq e‘tibor bersak, she‘r qahramoni dovyurak, davr bilan hamnafas, zamon yangiliklaridan boxabar bo‘lish barobarida hatto xayolida ham ona-Vatanga mehribon, sadoqatli, vatanparvar inson. U hamma ko‘rishni orzu qilgan sayyoralarga borsa-da, unga o‘z tug‘ilgan vatani, kindik qoni to‘kilgan yurt barchasidan aziz va mo‘tabardir. Bu she‘r yosh kitobxonlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usining yanada jo‘sh urishiga, o‘z tug‘ilgan go‘shasini dunyodagi boshqa “vatan”lardan ustun qo‘yish hissining shakllanishiga xizmat qiladi. Ma‘lumki, Vatan mavzusi, zamon va makon tanlamaydi. Bu she‘r o‘zining mazmuni bilan hozirgi kunning dolzarb masalalarini ham o‘z ichiga qamrab olganday taassurot qoldiradi. Xorijiy davlatlarga turli bahonalar bilan ketayotgan yoshlarimizga o‘z vatanlariga sodiq bo‘lish, xorijda orttirgan bilim va tajribalarini Ona-vatan ravnaqi yo‘lida sarflash lozimligini yorqin ranglarda tasvirlab beradi.

Anvar Obidjonning “Vatan” she‘ridagi boyqush ham vayronada yashasa-da, o‘z vataniga ega. Vatanining qanday bo‘lishidan qat‘i nazar unga mehr-muhabbat qo‘ygan, chunki bu makon uning uchun azizu mukarramdir:

– Senga bitta savol bor,
Menga quloq sol, hoy, qush.
Vayronada yashaysan,
Noming esa naq Boyqush.
Ayt-chi, nahot sen boysan?
– Asl boylik neligin,
Tushunmaysan, chamasi?
Bu – vayrona bo‘lsa ham,
O‘zimniki hammasi.

Shuning uchun men boyman!¹

“Vatan” she’ri biri moddiy va ma’naviy boylikni bir-biridan ajrata oladigan, ikkinchisi uning farqiga bormaydigan ikki xil qarama-qarshi toifaning dialogiga qurilgan. Tashlandiq bir vayronada yashayotgan qushning nomi nima sababdan aynan Boyqush ekanligini tushuna olmagan “noma’lum” taraf, o‘zining naqadar ma’naviy qashshoqligini, Boyqushning javobidan so‘ng anglasa, ajab emas. Bu she’r tagma’nosida o‘zbek xalqining purma’no hikmatga ega bo‘lgan “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l” maqoli to‘laligicha aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abobakirova, O. (2020). INTERPRETATION OF THE PERIOD AND HEROES IN UZBEK CHILDREN’S STORIES. *Theoretical & Applied Science*, (5), 821-825.
2. Buzrukova, D. M. (2023). "Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o‘ziga xosligi. *FarDU. ILMIIY XABARLAR 1 (UDK: 811.161.1)*, 318-321.
3. Buzrukova, D. M. (2023). “MUHABBAT” HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 178-183.
4. Gafurova, M. (2021). Intellectual and Cognitive Activities of School Pupils. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(2), 447-450.
5. Gafurova, M. A. (2021). Developing Cognitive Activities of Primary School Students based on an Innovative Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(10), 236-242.
6. Gafurova, M. A. (2023). Development of Cognitive Activity of Elementary School Students in Mathematics Lessons. *Global Scientific Review*, 14, 35-39.
7. Gofurova, M. A. (2020). Развитие познавательной деятельности учащихся при решении задач. *Theoretical & Applied Science*, (1), 677-681.
8. Jo,rayev, V. T. (2019). The advantage of distance learning courses in the process of education. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(9), 220-224.
9. Jo‘rayev, V. T. (2020). The role and advantages of distance courses in the innovative educational system. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(10), 434-439.
10. Jurayev, V. T. (2020). PEDAGOGICAL SOFTWARE IN THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS OF INFORMATICS IN AN INNOVATIVE ENVIRONMENT. *Theoretical & Applied Science*, (4), 182-185.

¹Obidjon A. Ona Yer. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1974. – B. 6.

11. Mamurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of "Love" As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(5), 95-98.
12. Mukhtoraliyevna, Z. S. (2022). INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 162-165.
13. Mukhtoraliyevna, Z. S., & Odilovna, B. R. (2023). AGE AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL BASES OF SPEECH DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN. *Open Access Repository*, 4(2), 763-767.
14. Mukhtoraliyevna, Z. S., & Salimovna, R. M. (2022). HISTORY OF UZBEK FOLK GAMES. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(10), 191-198.
15. Mukhtoraliyevna, Z. S., & Tavakkalovna, A. G. (2022). History of Information Technologies in Education. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 359-363.
16. Muxtoraliyevna, Z. S., & Odilovna, B. R. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA XUSUSIYATLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 147-152.
17. Shuhratovna, D. S. (2022). COGNITIVE LINGUISTICS AND NEUROLINGUISTICS. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 308-321.
18. Teshaboyev, D., & Abdumutalova, M. (2023). BOSHLANG „ICH SINF DARSLIKLARIDA QO „LLANGAN XALQ OG“ZAKI IJODIYOTI NA“MUNALARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 37-42.
19. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262- 6269.
20. Valijonovna, K. I., Rakhmatjonovich, T. D., & Mukhtoraliyevna, Z. S. (2022). Informational Technology at Education. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 262-266.
21. Zokirov, M. T., & Dadabayeva, S. S. (2020). ABOUT THE ROLE OF LANGUAGES CONTACTS IN THE DEVELOPMENT OF LANGUAGES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 687-691.
22. Zokirov, M. T., Zokirova, S. M., & Dadabayeva, S. S. (2021). About The Influence Of The Uzbek Language In Rishtan Tajik Dialects Of Ferghana Region. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(4).

23. Абобакирова, О. (2014). Особенности развития речи у дошкольников. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (6-2), 76-78.
24. Абобакирова, О. Н. (2016). Особенности наглядно-образного мышления у детей с общим недоразвитием речи. Молодой ученый, (4), 734-736.
25. Абобакирова, О. Н. (2018). Формирование у старших дошкольников эстетических чувств средствами кукольного театра. Молодой ученый, (18), 148-150.
26. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 239-242.
27. Гафурова, М. А. (2022). МЕТОДЫ И ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКЕ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ. Scientific Impulse, 1(5), 598-602.
28. Тешабоев, Д. Р. (2022). ЭРГАШ ГАПЛИ ҚЎШПРЕДИКАТИВ БИРЛИКЛАР ФАЛСАФИЙ МАЗМУН КАТЕГОРИЯСИ СИФАТИДА. BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 51-55.
29. Тешабоев, Д. Р. (2022). ЭРГАШ ГАПЛИ ҚЎШПРЕДИКАТИВ БИРЛИКЛАР ФАЛСАФИЙ НАРСА КАТАГЕРИЯСИ СИФАТИДА. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 25-30.
30. Тешабоев, Д. Р., & Ахмаджонова, М. Б. (2021). SON SO‘Z TURKUMINING BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1)- 1